

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Kurganov Anvar,

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi O‘zbek tili va xorijiy tillar kafedrasini boshlig‘i, f.f.b.f.d. (PhD), dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18082322>

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tili harbiy terminologiyasi tizimining tarixiy taraqqiyotini o‘rganish, mavjud tizimni mavzuiy guruhlar bo‘yicha tadqiq qilishda sof lingvistik ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, har ikki til xalqlarining arxeologiyasi, antropologiyasi, etnografiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, ularning lingvistik, lingvokulturologik va tarixiy xususiyatga xos xolis xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: termin, harbiy terminologiya, assimilyasiya, polisemiya, arxaizmlar, tarixiy, harbiy-boshqaruv, yozma yodgorliklar, diaxron tahlil, leksema, ekstralingvistik omillar.

Аннотация. В статье представлены чисто лингвистические данные по изучению исторического развития системы военной терминологии английского и узбекского языков, исследованию существующей системы по тематическим группам и посвящены изучению археологии, антропологии, этнографии народов обоих языков. Также даны объективные выводы, характерные для их лингвистических, лингвокультурологических и исторических особенностей.

Ключевые слова: термин, военная терминология, ассимиляция, полисемия, архаизмы, исторический, военно-административный, письменные памятники, диахронический анализ, лексема, экстралингвистические факторы.

Abstract. The article presents purely linguistic information on the study of the historical development of the system of military terminology of the English and Uzbek languages, the study of the existing system by thematic groups, and is devoted to the study of the archaeology, anthropology, and ethnography of the peoples of both languages. Also, objective conclusions are given regarding their linguistic, linguocultural, and historical characteristics.

Keywords: term, military terminology, assimilation, polysemy, archaisms, historical, military-administrative, written monuments, diachronic analysis, lexeme, extralinguistic factors.

Kirish. Britaniya orollari hududida ingliz tilining paydo bo‘lishi qadimgi davrdagi Germaniya istilosi bilan bevosita bog‘liq. Mamlakatni xristianlashtirish natijasida bu til lotin va yunon tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar bilan boyidi. Keyinchalik anglosaksonlar o‘z chegaralarini skandinavlar bosqinidan himoya qilishdi, o‘rta asrda esa Vilgelm boshchiligidagi normand qo‘shinlari bosimiga dosh bera olishmadi, bu esa ingliz tilining fransuz tili ta’siri ostida sezilarli darajada o‘zgarishiga olib keldi. Ilk yangi Angliya davri Ispaniya bilan kechgan harbiy to‘qnashuvlar va jahon ingliz ekspansiyasi boshlanishi bilan izohlanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, harbiy ish, umuman harbiy faoliyatga oid leksika ingliz tilida eng qadimiy, antik davr yodgorliklaridan boshlanadi. Lekin, bu jarayon harbiy terminologiyani bugungi kundagidek alohida tizim sifatida shakllantirmagan. Chunki, harbiy terminologiya nafaqat terminlar ro‘yxati, balki, semiotik va semiologik yaxlit tizim hamdir. Ya’ni, o‘z navbatida muayyan kasbga xoslangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy bilimlar va dunyoqarashni aks ettiruvchi tushunchalarning muayyan tizimini ifodalashdir [1].

Adabiyotlar tahlili. Ingliz va o‘zbek tillarida harbiy terminologiyaning shakllanishi va tarixiy rivojlanishi masalasi tilshunoslikda diaxron tadqiqotlar doirasida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Terminologiya nazariyasining umumiy masalalari “Lingvistik ensiklopedik lug‘at”da atroflicha yoritilgan bo‘lib, unda termin, terminologik tizim va ekstralingvistik omillarning o‘zaro aloqasi asoslab berilgan.

Ingliz tili harbiy terminologiyasining tarixiy-semantik xususiyatlari Yu.Yu. Dubrova tadqiqotlarida ko‘p komponentli terminlarning struktur-semantik tabiati orqali tahlil qilingan. O‘zbek tili harbiy terminologiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari esa H. Dadaboyevning fundamental tadqiqotlarida qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o‘zbek adabiy tili materiallari asosida keng yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tarixiy va diaxron tahlil metodlari asosiy metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi harbiy terminlar tarixiy bosqichlar kesimida o‘rganilib, ularning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etgan lingvistik hamda ekstralingvistik omillar aniqlandi.

Shuningdek, leksik-semantik tahlil yordamida terminlarning polisemiyasi, determinlashuvi, arxaizmlashuvi va terminologik tizimdan chiqish jarayonlari tadqiq etildi. Etimologik, struktur va tematik guruhlash usullari orqali harbiy terminlar tizimlashtirildi. Tadqiqotda yozma yodgorliklar, tarixiy lug‘atlar va ilmiy manbalar asosiy faktik material sifatida xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Biz maqolada XIV-XVII asrlarda, ya’ni ingliz tili rivojlanishining yangi ingliz tili davrigacha fransuz va italyan tillaridan o‘zlashgan harbiy terminlarning rivojlanishi va assimilyasiyasini o‘rganishga harakat qilamiz. O‘zlashgan leksik qatlam assimilyasiyasining chuqurligi, uning zamonaviy tilga kirib kelish jarayoni katta qiziqish uyg‘otadi, albatta.

Tadqiqotda fransuz va italyan tillaridan ingliz tiliga o‘zlashgan, ketma-ket tanlov metodi asosida etimologik lug‘atdan tanlab olingan 100 ta harbiy termin tahlilga tortildi. Tahlil qilinadigan leksik birliklar quyidagi tematik guruhlarga ajratildi: 1) urush va urush harakatlari; 2) harbiy texnika; 3) harbiy unvonlar; 4) harbiy qismlar; 5) harbiy xizmatchilar; 6) harbiy hayot attributlari.

O‘rta va ilk yangi ingliz davri harbiy terminlar tizimidagi o‘zlashmalari 4 ta yo‘nalishda rivojlangan:

1. Faqat harbiy sohada saqlanib qolgan terminlar;
2. Iste’moldan to‘liq chiqqan terminlar;
3. Tizimdan qisman chiqqan terminlar;
4. Boshqa terminologik tizimga ko‘chgan terminlar.

Shubhasiz, termini shakllantirish, mavqeini muayyan terminlar tizimida mustahkamlash, uning umumiste’mol leksikada qo‘llanishi, muhim leksik birliklar tarkibiga kirishi uzoq vaqtni talab qiladi. O‘zlashtirilgan leksik birliklar uchun tilning fonetik,

grammatik va leksik bosqichlarida assimilyasiya zarurati sababli bu jarayon uzoq davom etadi. Ta'kidlash lozimki, barcha tahlil qilingan harbiy terminlar ingliz tilida muvaffaqiyatli assimilyasiyalashgan va asl ingliz tili so'zlaridan deyarli farq qilmaydi.

XVI asr boshlarida Angliyada ingliz millatining paydo bo'lishi va birlashishi, yagona milliy tilning shakllanishi va o'ziga xos adabiy ingliz tili tug'ilishi bilan bog'liq yangi til muhiti yuzaga keldi. Bu davrda 300 yildan ortiq davlat tili sifatida hukmronlik qilgan fransuz tilining ta'siri ancha zaiflashadi, ingliz tili esa unga avval tegishli bo'lmagan sohalarni o'zlashtira boshlaydi. Lug'atni tarkibini kengaytirish, boyitish yo'llari iste'mol uchun samara bermagan arxaizm va dialektizmlarni jonlashtirishga olib keldi. Arxaik so'zlarning yo'qolib ketishi va o'zlashmalarning asta-sekin moslashishi negizida polisemiya rivojlana boshladi. Ushbu jarayon ingliz tilining sintetik tizimdan analitik tilga o'tishi davrida yanada ommalashdi va keng ma'nodagi analitizm jarayoni bilan bog'liq bo'ldi. Polisemiyaning yangi ingliz tili davrida so'z hosil qilishning yangi usuli sifatida mustahkamlanishi o'zlashgan harbiy terminlar determinlashuvi jarayonini "rag'batlantirdi". Umuman, tasvirlanayotgan jarayon maxsus sohadan tashqari va o'ziga xos bo'lmagan kontekstlarda ishlatish jarayonida termin maxsus ma'nosini yo'qotishini anglatadi. Determinlashuvda terminologik birliklar jamiyat a'zolarining yangi ehtiyojlariga "munosabati" natijasida umumiste'mol til tomonidan o'zlashtirilishi va tilning semasiologik aspektida muayyan o'zgarishlar yuz berishini nazarda tutadi.

Fransuz va italyan tillaridan o'zlashtirilgan leksika diaxron aspektida tahlil qilinganda, muayyan leksik birliklarning terminologiyadan boshqa soha leksikasiga o'tish mezonlari aniqlandi. Terminologiyadan chiqqan leksik birliklarning barcha ma'nolari alohida lug'atlarda [1] berilgan. Bu kabi semantik hosilalar terminologik birliklarning terminologiyadan chiqish jarayoni yakunlangandan so'ng paydo bo'lishi mumkin.

Ilmiy-nazariy materiallar tahlili shuni ko'rsatdiki, XIV asrda eski fransuz tilidan o'zlashgan *army* leksemasi o'sha paytda "*armed troop, armed expedition*" (armiya, qo'shin) semalariga ega bo'lgan. Bugungi kunda harbiy termin sifatida bu so'zning ma'nosi adabiy ingliz tilida ham saqlanib qolgan. Biroq, mazkur so'zning determinlashuv hodisasiga uchrashi natijasida unga qo'shimcha ma'nolar yuklatilgan: 1) anybody of persons organized for any purpose as *the army of census takers* (hattotlar armiyasi) 2) a very large number or group of something, a great multitude as *the army of the unemployed* (ishsizlar armiyasi) [2.23].

XVI asrda italyan tilidan ingliz tiliga o'zlashgan *bastion* leksemasi "bastion, mudofaa hududi" ma'nolarida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda u harbiy termin sifatida *fortress - qal'a, fortified place - mudofaasi mustahkamlangan hudud* ma'nolarida ham qo'llanilmoqda. Tarixiy tadrijiy taraqqiyot natijasida ingliz tilidagi bu leksema o'zida polisemantik xususiyatni o'zlashtirib, *...a bastion of solitude* "yolg'izlik, yagonalik

qo‘rg‘oni); ...*a bastion of democracy* “demokratiya asosi” kabi qo‘shimcha ma‘nolarga ega bo‘lgan.

Ingliz tilidagi o‘zlashgan harbiy leksik birliklar rivoji va assimilyasiyasining ikkinchi yo‘nalishi mazkur leksemalarning harbiy terminologik tizimda mavqeini mustahkamlash va dastlabki ma‘nosini saqlab qolishdan iborat. Lingvistik materiallarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, tahlilga tortilgan harbiy terminlardan uchta o‘zlashma tarixiy harbiy terminga nisbatan konseptuallik-strukturaviy jihatdan, aniq ma‘nosini saqlagan holda ixtisoslik va terminologiyadan chiqarish qo‘llanilmagan. Ular quyidagilardir:

- *colonel* (fr., XV asr) “an army rank” (polkovnik);
- *navy* (fr., XIV asr boshi) “fleet of ships, especially for purposes of war” (harbiy-dengiz floti);
- *sentry* (ital., XVI asr) “military guard posted around a camp” (navbatchi).

Ingliz tiliga boshqa xorijiy tillardan o‘zlashgan harbiy terminlar semantikasidagi siljishlar va rivojlanishdan yana biri muayyan vaqt oralig‘ida faol iste‘moldan chiqish, arxaizm va tarixiylik ko‘rinishida passiv zahiraga o‘tish. Ma‘lum tarixiy davrlardan so‘ng qayta iste‘molga kirishdir. Tahlil qilinayotgan material doirasida harbiy istilohlarning eskirishi so‘zning leksik shakliga yoxud uning ma‘nolaridan biriga taalluqlidir.

Leksik arxaizmlar: *courser* – “a large powerful horse” (harbiy ot); *ulan* – “type of cavalry man” (ulan).

Semantik arxaizmlar: *cannon ball* – “a missile, usually round and made of iron or steel, designed to be fired from a cannon” (zambarak o‘qi); *regiment* – “government, rule” (boshqaruv, hokimiyat); *chivalrous act* – “gallant deed” (risar qahramonligi); *battle* – “a battalion” (qo‘shin, armiya); *captain* – “military leader” (strateg, polk jangchisi); *to company* – “to accompany” (kuzatib borish, konvoy); *magazine* – “place for storing goods” (ombor, tovarlar ombori); *battalion* – “battle squadron” (armiya, qo‘shin).

Tarixiy so‘zlar, avvalgi davr realiyalari va tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarning lug‘at tarkibidagi passiv qismi tarixiy ilmiy asarlar, badiiy adabiyot va poeziyada qo‘llanilishi mumkin.

Tarixiy harbiy terminlar (istorizmlar): *marshal* – “officer in charge of a household, groom” (qirol ot boqari); *bachelor* – “youthful knight, novice in arms” (risar-vassal); *squire* – “a young man who attends a knight” (qurolbardor); *chivalry* – “knight dignity, knighthood in the feudal social system” (risar sha‘ni, risarlik); *siege* – “throne” (toj, taxt); *canteen* – “canteen keeper in a military camp” (do‘kon, arava, markitanta); *recruit* – “a levy of troops” (rekrut, jalb qilish); *cavalier* – “knight, mounted soldier, gentleman serving as a lady’s escort” (risar, otliq jangchi, kavaler, ayolning partnyori (sherigi)); *cavalier* – “royalist adherent of Charles I” (qirollik vakili), Karl I ning puritan va parlamentga qarshi kurashidagi tarafdori).

Ushbu istilohlarning tarixga aylanish sababi, ular XIV-XV asrlarda fransuz tilida harbiy termin sifatida yuqorida ko'rsatilgan ma'nolarda qo'llanilgan bo'lsa, hozirda ushbu terminlar ingliz tilida butunlay boshqa ma'nolarni anglatadi.

XIV-XVI asrlar fransuz va italyan tillaridan ingliz tiliga o'zlashgan harbiy terminlarning aksariyat qismi tarixiy tadrijiy taraqqiyotida bir necha bosqichni bosib o'tgan. Mazkur harbiy terminologik birliklarning o'rni, roli va mavqei tizimda mustahkamlandi, ayrimlari esa ixtisoslik va terminologiyadan chiqib, determinlashuv hodisasiga uchrash natijasida umumiste'mol leksikadan joy oldi va turg'un so'z birikmalari tarkibiga kirdi.

Leksik birliklarning aniqlangan taraqqiyot yo'llari terminologik tizimning muttasil rivojlanish yo'lida ekanligi, uning turli til hodisalariga ochiqligi hamda barcha leksik qatlamlarning o'zaro hamda uzviy dinamik aloqada ekanligini tasdiqlaydi.

O'zbek tili harbiy terminologiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlariga to'xtaladigan bo'lsak, xalqimiz azal-azaldan, asrlar davomida turli jangu jadallarda ishtirok etib, ona Vatan sarhadlarini mudofaa qilish maqsadida bir qancha qabilalar, davlatlarning harbiy kuchlari bilan to'qnashgan.

Bugungi kunga kelib esa rivojlangan davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yib, harbiy sohada tajriba almashmoqda. Islohotlarni amalga oshirish natijasida ko'plab yutuqlarga erishilmoqda. Davlatlararo diplomatik aloqalarning rivojlanishi, turli sammitlar, rasmiy muzokaralar natijasida milliy tilimizga ko'plab yangi so'zlar, terminlar kirib keldi va tilimizning so'z boyligi yanada ortdi. Shu sababli o'zbek tili harbiy terminlarining shakllanish va rivojlanish dinamikasini aniqlash va lisoniy jihatdan atroflicha tahlil qilish, bir tomondan, xalqimizning boshqa elat, millat vakillari bilan bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy aloqalari haqida fikr yuritish va ma'lumot olish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, harbiy ish va harbiy san'at qaror topishini o'rganadi va uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi haqida guvohlik beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek tili harbiy terminologiyasi tizimining tarixiy taraqqiyotini o'rganish, mavjud tizimni mavzuiy guruhlar bo'yicha tadqiq qilishda sof lingvistik ma'lumotlardan tashqari millatning qardosh turkiy xalqlar, shuningdek, turkiy bo'lmagan qo'shni xalqlarning arxeologiyasi, antropologiyasi, etnografiyasini o'rganishni ham talab qiladi. Zotan, ular lingvistik, lingvokulturologik va tarixiy xususiyatga xos xolis xulosalar chiqarishda samarali natija beradi.

VI asrning ikkinchi yarmiga kelib Markaziy va O'rta Osiyoning yirik hududlarida o'zining taraqqiyot darajasiga erishgan ko'chmanchi-chorvadorlar davlati – Turk xoqonligi shakllandi. Xoqonlikning asosini qabila birlashmalari tashkil etgan. O'troq va ko'chmanchi aholidan tashkil topgan xoqonlik – Xitoy va Eron bilan ko'p bor jang olib borgan. Turk xoqonligining harbiy kuchlariga harbiy-feodal aristokratiya vakillari boshchilik qilgan. Ushbu buyuk davlat 600 yilga kelib Sharqiy Turk va G'arbiy Turk xoqonligiga bo'linib

ketdi. VIII asr boshlarida eng yuqori harbiy va siyosiy kuchga erishgan Sharqiy Turk hoqonligi 745 yilda siyosat sahnasidan ketdi.

O‘zbek tili harbiy leksikasining tarixiy taraqqiyoti H.Dadaboyev tadqiqotlarida atroflicha ochib berilgan. Olimning deyarli barcha ilmiy ishlari terminologiya muammolari tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, qadimgi turkiy til (VII-X), eski turkiy til (XI-XIV) va eski o‘zbek adabiy tili (XV-XIX)da faol qo‘llanilgan tarixiy harbiy terminlarning tarixiy tadrijiy taraqqiyoti o‘zbek tili misolida ilmiy jihatdan keng qamrovli tahlil etilgan [3.356].

Uning yuqorida zikr etilgan ilmiy ishlari terminlar tarixidan boy faktik-analitik material beribgina qolmay, harbiy terminologiya, ijtimoiy-iqtisodiy terminologiya tizimida ishlatilgan o‘z qatlam qatori, arab, fors, mo‘g‘ul tillariga mansub o‘zlashma qatlam xususida ham keng tasavvur tug‘diradi. Olimning ishlarida o‘rxun-yenisey bitig‘lari, eski turkiy til obidalari va eski o‘zbek tili manbalarida qo‘llanishda bo‘lgan terminlar ma‘nosi, ularning ma‘no nozikliklari aksariyat holda yodgorliklardan keltirilgan ashyoviy dalillar yordamida ochib berilgan va izohlangan [4.37].

Tarixiy manbalarda keltirilgan ma‘lumotlarga asosan VI-VIII asrlarda, qadimgi turkiy tilda safdagi turk harbiy iyerarxiyasida oliy harbiy qo‘mondon, ayni vaqtda davlat rahbari **xoqon** deb yuritilgan. U jang va kurashlar jarayonida hokimiyatning mustahkamlanishiga yordam bergan, talon-taroj va yurishlar tashkilotchisi bo‘lgan hamda “harbiy boshliq (qo‘mondon) lavozimi orqali hokimiyatga erishgan” [5.108].

Yabg‘u va **shad** terminlari orqali xoqondan keyingi oliy darajadagi harbiy-boshqaruv darajalari belgilangan. Ular harbiy boshliqlar sifatida “odatda qo‘shinning chap va o‘ng qanotiga boshchilik qilishgan” [5.112] va ushbu lavozimga “faqat xon avlodidan” bo‘lgan kishilargina tayinlangan. G‘arbiy turklarda oliy hukmdor unvoni **yabg‘u** termini bilan atalgan. Al-Xorazmiyning “Mafatix ul-ulum” asarida, o‘g‘uzlar va qarluqlar shohi **jabbuya**, ya‘ni **yabg‘u** deb atalgani haqida ma‘lumotlar uchraydi. G‘arbiy Turk xoqonligida **shad** termini orqali oliy harbiy-boshqaruv lavozimlaridan biri atalgan. **Shad** xoqondan keyingi to‘rtinchi unvon, tegin (taxt vorisi) va **yabg‘u** qondoshlik bo‘yicha shahzodalarga tenglashtirilgan. **Shad** lavozimidagi kishi tardush xalqini ham boshqargan va alohida saralangan qo‘shinga boshchilik qilgan.

O‘sha paytlari qadimiy turkiy tilida iste‘molda bo‘lgan yana bir harbiy termin bu - **buyuruq** termini bo‘lib, mazkur termin alohida qo‘shin qo‘mondonlari, boshliqlarini anglatgan. Turkiy xalqlar davlatchiligida **buyuruq** mavqei jihatdan hozirgi bosh vazir lavozimiga tenglashtirilgan. Har bir xoqonda faqat bitta **buyuruq** – **buyruqdor** bo‘lgan.

Qadimgi turkiy tilga xitoy tilidan o‘zlashgan **tutuq** (harbiy gubernator) termini uncha katta bo‘lmagan viloyat va tumanlar, sulola-qabilalarning e‘tiborli vakillari, merosxo‘r beklar, turk xoqonining yer egalari tomonidan boshqarilar edi. Bundan tashqari, mazkur unvon sohiblari yurish chog‘larda o‘ziga tegishli hududdagi jangovor kuchlarni ham boshqargan.

Qadimiy turkiy yozma yodgorliklarning guvohlik berishicha harbiy maslahatchi unvoni ma'nosida **ayg'uchy** termini, xitoy tilidan o'zlashgan **senyn** harbiy termini esa lashkarboshi (general unvoniga teng) ma'nolarida qo'llanilgan. Eski o'zbek tilida faol qo'llanilgan **bash** va **bashlyg'** harbiy terminlari "boshliq, harbiy safni boshlab boruvchi, rahbar" ma'nolarini anglatgan. Shuningdek, **su bashy** termini Turk xoqonligining yuqori harbiy lavozimlaridan biri hisoblanib, turkiy qo'shinining alohida xizmat ko'rsatgan harbiy boshliqlariga berilgan.

Mingboshi **byna bashy** termini bilan atalgan. G. Dyorfer bu termini "avangard boshlig'i" sifatida tarjima qiladi. "Avangard boshlig'i" lavozimida faoliyat yuritgan kishi **yizak bashy** termini – so'z birikmasi bilan ham nomlangan.

Tahlilga tortilgan harbiy terminlarning diaxron tahlili shuni ko'rsatadiki, Turk xoqonligi davrida davlatni boshqarish va harbiy harakatlarni samarali olib borish uchun ham harbiy, ham ijtimoiy-fuqaroviy lavozimlarda faoliyat yuritgan harbiy-boshqaruv tizimi yaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Er – so'zi qadimgi turkiy xalqlar tilida va harbiy leksika nuqtai nazaridan "yetuk jangchi, mard, botir, yengilmas, qahramon" kabi ma'nolarni o'z semantik ko'lamiga qamrab olgan. Unga sinonimik muqobil so'z sifatida **erən** termini ham qo'llanilgan [6.11]. Hozirgi kunda qo'llaniladigan "yosh jangchi, yosh risar, drujinadagi erkak" ma'nosi esa o'sha paytda **og'lan** termini bilan ifoda etilgan. Lisoniy nuqtai nazardan **er** leksemasida **erən** va **og'lan** so'zlariga nisbatan semantik dominantlik mavjud. Ma'lumki, tarixiy tadrijiy bosqichlar va muayyan ekstralingvistik omillar natijasida tildagi ayrim so'zlarning ma'nolari yanada kengaysa, ba'zilarida esa ma'no torayish hodisasi yuz beradi. Bugungi kunga kelib **er** so'zida ham xuddi shunday o'zgarish yuz bergan. Ya'ni ushbu so'zning ma'nosi qadimda qo'llanilgan bir nechta semalariga nisbatan ma'nosi toraygan. U tildagi determinlashuv hodisasiga uchrash natijasida ijtimoiy turmushda ko'proq ishlatiladigan **er** "turmush o'rtoq", **er yigit** "navqiron kishi" ma'nolarini saqlab qolgan. Mazkur so'zning oldingi qo'shimcha ma'nolari esa bugungi kunga kelib semantik arxaizmlar qatoriga o'tgan, deyish mumkin.

Shuningdek, **alp** termini qadimgi turkiy yozma yodgorliklarida "qahramon jangchi, mard, jasur" ma'nolarini ifoda etgan [6.7]. O'rxun-Yenisey bitiklarining guvohlik berishicha, ushbu leksema orqali nishonga aniq uradigan **kamonchi**, **o'qchi** harbiy jangchi nazarda tutilgan. O'sha davrlarda muloqotda keng qo'llanilgan **alp** termini "mard, jasur, qo'rqmas" ma'nolarini anglatgan bo'lsa, mazkur so'zning muqobil ma'nodoshi o'rnida **bukə** – "qahramon, mard yigit" so'zi xizmat qilgan. Har ikki istilohni hozirgi o'zbek adabiy tilidagi adabiy, tarixiy-memuar asarlar, o'sha davrning adabiy ruhini aks ettiruvchi poetik manbalarda uchratish mumkin.

S.Ye.Malovning ilmiy ishlarida qayd etilishicha: Jang jaryonida kutilmagan hujum **yelməg** harbiy termini orqali ifodalangan. "Hujum qilish" tushunchasi esa eski o'zbek tilidagi ba'zi manbalarda **aqunla** fe'li termin bilan ham berilgan. Eski o'zbek tilida mavjud bo'lgan **eg** fe'li negizi asosida shakllangan **egir-** leksemasi "qurshab olmoq, dushmani

aylanib o'tmoq" ma'nolarida qo'llanilgan [6.31]. Harbiy jang uchun "qo'shin yig'ish" tushunchasi esa **ter-** fe'li orqali ifodalangan [7.36].

Tarixiy, arxeologik va etnografik topilmalarning guvohlik berishicha, turkiy otliq askari ko'kragida aylana shaklidagi qalqonli **zirhli kiyim** bo'lgan. O'tliqlarning boshi "qush pati bilan bezatilgan" va **dubulg'a** orqali himoyalangan. O'tliqda **qilich, qopchiq va kamon, nayza** va **dubulg'a** bo'lgan.

O'zbek tilidagi "lashkargoh, askargoh" tushunchasi qadimgi turkiy tilda **ordu** termini orqali ifoda etilgan. Ushbu termin aksariyat hollarda **harbiy boshliq qarorgohini** anglatgan [7.8]. Yozma tarixiy manbalarda bitilishicha, harbiy qo'shin qishlagan, navbatdagi harbiy jang yurishiga tayyorgarlik ko'rish yoki dushman hujumidan himoyalaniish maqsadida barpo etilgan qal'a **qurg'an** termini bilan ifodalangan [7.48]. **Qurg'an** terminining fonetik o'zgarishga uchragan **qo'rg'on** shakli hozirgi o'zbek tilida va uning ba'zi shevalarida ham saqlanib qolgan.

Navkar, nukar (mo'g'ulcha noxor – do'st, o'rtoq) – 1) mo'g'ul xonlari, no'yon huzurida xizmat qiluvchi oliy tabaqali yigitlar. Navkarlar – qurollangan erkin kishilar bo'lib, no'yonlarga o'z ixtiyorlari bilan xizmat qilishgan va ularning qaramog'ida bo'lishgan. Urush paytida *navkar* avvalambor jangchi, tinchlik paytida esa qo'riqchi va "uy kishisi", xonadonga yaqin kishi bo'lgan. Navkarlar xizmatlari evaziga dastavval uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak va qurol-yarog', keyinchalik esa harbiy o'ljaning bir qismi, in'om etilgan yer mulki va qarollar bilan taqdirlangan. Bu esa ularni yirik zodagonlarning vassallariga aylanishlariga imkon bergan. Xizmat pillapoyasida o'z iste'dodini namoyish etgan ko'pgina navkarlar keyinchalik turli harbiy bo'linma va qismlarga qo'mondon bo'lganlar. 2) Amir Temur va temuriylar davrida navkarlar termini – "xizmatkor", "askar", "qo'shin" ma'nolarida qo'llanilgan; 3) Usmonli turk imperiyasi 14–17 asrlarda navkar "tanqo'riqchi, xizmatkor"; 4) Safaviylar davlatida navkar – harbiy-ma'muriy mansabdorga tobe harbiy xizmatchi, askar; 5) Xiva xonligida navkar – "lashkar"ni anglatgan; 6) Buxoro xonligida navkar xizmati uchun davlat tomonidan belgilangan maosh bilan ta'minlangan va majburiy harbiy xizmatni o'tagan. Harbiy harakatlardan bo'sh paytlarda navkar soqchilik vazifasini bajargan [8.10].

Tadqiqotda keltirilgan faktik misollardan ko'rinib turibdiki, qadimgi turkiy til yozma yodgorliklarida qayd qilingan harbiy istilohlarning struktur-semantik qurilishida, ularning shakllanishida o'z qatlamining roli beqiyos. Bundan tashqari, ba'zi harbiy terminlarning vujudga kelishida morfologik va sintaktik usullarning o'rni va roli muhim ahamiyat kasb etgan. Termin yasashda semantik usulning kammahsulligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. Xullas, ingliz va o'zbek tillarida harbiy terminlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, harbiy terminlarning qo'llanish xususiyatlari va harbiy terminlarning nominativ-funksional xususiyatlari har ikki tilda turlicha ekanligi, G'arb va Sharq madaniyatini o'zida aks ettiruvchi ikki tildagi harbiy terminlarning lingvokulturologik xususiyatlari bir birlaridan mutlaqo farq qilishi tadqiqotimizda yaqqol ko'zga tashlandi. Shu

o'ringda A.V. Mirtov: Xalqning tarixiy, uzluksiz amaliy muloqot jarayonida til o'zining me'yorlarini takomillashtiradi, ifodaning yanada aniq vositalarini ishlab chiqadi. Shu bilan birga, tilda aks etadigan alohida tarixiy, ijtimoiy-siyosiy keskinliklarni ham unutmaslik kerak, chunki nutq amaliyotida paydo bo'ladigan o'zgarishlar tendensiyasi ayni shu davrda yuzaga qalqib chiqadi va kuzatuvchi ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi deb ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия. 1990. УРЛ: <http://tapemark.narod.ru/les> (дата обращения: 30.10.2016).
2. Дуброва Ю.Ю. Структурно-содержательная специфика многокомпонентных терминов (на материале военных документов): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: 2015.
3. Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Дис...канд.филол.наук. – Тошкент: 1981; Дадабаев Х. Общественно – политическая и социально – экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI – XIV вв: Дис...д-ра филол.наук. – Тошкент: 1991.
4. Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол...фанлари док...дисс. – Тошкент: 2016.
5. Бернштам А.Н. Социально-экономический строй орхон-енисейских тюрок VI-VIII вв. – М., – Л., 1946.
6. Алишер Навоий. Хамса. Ҳайрат ул-аброр. Илмий-танқидий матн. Тузувчи: Шамсиев П. – Тошкент: 1963.
7. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М., – Л.: 1951.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: 2000.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934